

Date: 7th December-2025

SINXRON VA DIAKRONIK (YOZMA) TARJIMA: XUSUSIYATLARI VA QIYINCHILIKLARI

Klishbekova Sandug'ash Janbolat qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Angren fakulteti, I kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimashunoslikning ikkita asosiy yo'nalishi – sinxron (og'zaki) va diakronik (yozma) tarjimaning nazariy xususiyatlari, qo'llanish sohalari va farqlari o'rganiladi. Sinxron tarjima real vaqt rejimida yuqori kognitiv zo'riqish, tezkorlik va psixologik barqarorlikni talab qiluvchi murakkab jarayon sifatida tavsiflanadi. Diakronik tarjima esa chuqur matn tahlili, tarixiy-madaniy kontekstni hisobga olish va semantik aniqlikni ta'minlashni talab qiladi. Maqolada ushbu tarjima turlarining professional mahorat shakllantirishga ta'siri, etik mas'uliyat jihatlari hamda zamonaviy axborot jamiyatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sinxron va yozma tarjima tarjimon faoliyatida birbirini to'ldiruvchi muhim yo'nalishlardir.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, diakronik tarjima, psixologik bosim, etik mas'uliyat, madaniy va tarixiy kontekst, muloqot, tarjimashunoslik.

Abstract. This article examines two major branches of translation studies – simultaneous interpreting and diachronic (written) translation – and identifies their theoretical features and areas of application. Simultaneous interpreting is described as a complex process that requires immediate reaction in oral communication, high concentration, and the ability to switch between two languages in real time. Diachronic translation involves deep text analysis, semantic accuracy, clarity, and the complete preservation of the author's ideas. The article compares the key differences between the two types of translation, their professional requirements, their impact on the development of translation skills, and their importance in today's information society. According to scholarly research, simultaneous and written translation are complementary fields that play essential roles in the professional work of translators.

Keywords: simultaneous translation, diachronic translation, psychological pressure, ethical responsibility, cultural and historical context, communication, translation studies.

Аннотация. В данной статье рассматриваются две важнейшие области переводоведения – синхронный перевод и диахронический (письменный) перевод, определяется их теоретическая специфика и сфера применения. Синхронный перевод характеризуется как сложный процесс, требующий немедленной реакции в устной коммуникации, высокой концентрации и способности переводить между двумя языками в режиме реального времени. Диахронический перевод предполагает глубокий анализ текста, точность передачи смысла, семантическую ясность и полное сохранение авторской мысли. В статье сравниваются отличительные особенности двух видов перевода, их профессиональные требования, влияние на формирование переводческих навыков, а также их значимость в современной информационной среде. Научные исследования показывают, что синхронный и письменный перевод



Date: 7th December-2025

являются взаимодополняющими направлениями в профессиональной деятельности переводчика.

Ключевые слова: синхронный перевод, диахронический перевод, психологический стресс, этическая ответственность, культурный и исторический контекст, коммуникация, переводоведение.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida tarjimon turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositasidir. Zamonaviy tarjimashunoslik tarjimoni nafaqat til birliklarini almashtirish, balki ko'p qirrali madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, Susan Bassnettning "Tarjimashunoslik" ("Translation Studies") asari mustaqil fan sifatidagi tarjima nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. U tarjima jarayonidagi lingvistik, madaniy va badiiy omillarning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, matnlararo ekvivalentlik va tarjimon subyektivligi kabi muhim tushunchalarni ilmiy asoslagan. Ushbu maqola tarjima nazariyasining asosiy tamoyillarini, xususan Bassnettning xulosalarini umumlashtirib, tarjimonga ta'sir etuvchi lingvistik va madaniy jarayonlarni ko'rib chiqadi.

1. Tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari

Tarjima nafaqat bir tildan ikkinchi tilga so'zmaso'z o'girish, balki manba matnning mazmuni, uslubi, hissiy ohangi va madaniy kontekstini maqsadli matnda qayta yaratish jarayonidir. Peter Newmark o'zining "Tarjima darsligi" ("A Textbook of Translation") asarida tarjimoni ikkita asosiy yo'nalishga ajratadi: semantik tarjima (matnning asl ma'nosi va xususiyatlarini maksimal darajada saqlash) va kommunikativ tarjima (matnning ta'sirini maqsadli auditoriyaga samarali yetkazish). Muhim jihat shundaki, tarjima faqat so'z yoki gap emas, balki madaniy kodlar va tushunchalarni (masalan, an'analar, milliy xususiyatlar) ham o'z ichiga oladi. Ushbu madaniy elementlarni noto'g'ri yetkazish butun matn mazmunini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli, tarjima jarayonida matnni uning umumiy kontekstisiz, alohida birlik sifatida emas, balki butunligicha talqin qilish muhimdir. Kontekst bir xil iboraning turli ma'nolarini (masalan, "U keldi" iborasi shaxsning, histuyg'uning yoki mavsumning kelishini bildirishi mumkin) ajratib beradi. Tarjima nazariyasi shuningdek, tilshunoslik, semiotika kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan interdisiplinar fan hamda yuqori kognitiv zo'riqish ostida tezkor va muvozanatli qaror qabul qilishni o'z ichiga olgan professional mahoratdir.

2. Sinxron tarjimaning xususiyatlari va qiyinchiliklari

Sinxron tarjima – bu spikerni eshitgan holda hech qanday kechikishlarsiz bir necha soniyalar ichida tushunarli tarjima qilish jarayonidir. Ushbu jarayon bir vaqtning o'zida bir nechta kognitiv harakatlarni amalga oshirayotganligi sababli, tarjimaning eng murakkab turi hisoblanadi. Bu jarayon tinglash, ma'noni tushunish, axborotni qisqa muddatli xotirada saqlash va uni qayta ishlab tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sinxron tarjima yuqori konsentratsiyani, tezkor fikrlashni va ikki tilda ham ravon gapirishni talab qiladi.

Sinxron tarjimaning muhim xususiyatlaridan biri – vaqtning cheklanganligidir. Tarjimonning tarjimaga ajratadigan vaqti cheklanganligi sababli, u axborotni to'liq va



Date: 7th December-2025

to'g'ri yetkazish uchun semantik ustuvorlikka e'tibor beradi. Ushbu jarayonda so'zlarning to'liq tuzilishi emas, balki ularning asosiy ma'nosi va konteksti muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sinxron tarjimon gapiruvchining ovoz va hissiy ohangi, aksenti, nutq tezligi kabi xususiyatlarini ham yetkazishi kerak.

Kognitiv zo'riqish sinxron tarjimonning eng qiyin jihatlaridan biridir. Aytilgan axborot hajmi qanchalik yuqori bo'lsa, tarjimonning eslab qolish qobiliyati va uni qayta ishlash jarayoni shunchalik qiyinlashadi. Maxsus soha terminologiyasining ko'pligi tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki so'zning boshqa ma'nolarini birikki soniyada topish qiyin bo'ladi. Bunday vaziyatda tarjimonga oldindan tayyorgarlik zarur. Emotsional hayajon yoki psixologik bosim ham tarjimon ishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Sinxron tarjimaning kognitiv qiyinchiliklarini D. Gile o'zining "Kuch sarfi modeli" ("Effort Model") asarida tushuntirgan. U jarayonni to'rta asosiy komponentga ajratadi: L – Tinglash (Listening), P – Nutq ishlab chiqarish (Production), M – Xotira (Memory) va C – Muvofiqlashtirish (Coordination). Agar ushbu komponentlardan biri yetarli darajada ishlamasa, tarjima jarayoni buziladi. Fransiyalik mashhur sinxron tarjimon va akademik yozuvchi Danica Seleskovitch o'zining "Ma'no nazariyasi" ("Sense Theory") asarida tarjimonning asosiy maqsadi so'zning tashqi shakliga qarab emas, balki undagi asosiy ma'noga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi.

3. Diaxronik (yozma) tarjimaning xususiyatlari va qiyinchiliklari

Yozma (diaxronik) tarjima – bu tarixiy davrlar oralig'ida yozilgan yoki aytilgan matnlarni tarjima qilish jarayonidir. Bu tarjima turi nafaqat hozirgi til normalari, balki o'tmishdagi davrning tili, madaniyati va tarixiy vaziyatini chuqur tushunish va tahli qilishni talab qiladi. Diaxronik tarjimaning xususiyatlari va qiyinchiliklari sinxron tarjimaga qaraganda boshqacha tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Diaxronik tarjimaning asosiy xususiyati – tarixiy kontekstga e'tibor qaratish zarurligidir. Eski tarixiy so'zlar vaqt o'tishi bilan tildagi tuzilishi va leksikasi o'zgarishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar tarjimon uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki oldingi so'zlarning hozirgi tildagi moslashuvini topish qiyin. Tarixiy matnlarda ko'pincha o'tgan davrning madaniy xususiyatlari, an'analari, dunyoqarashi aks etgani uchun, tarjimon faqat tilni emas, balki madaniy ma'nolarni ham yaxshi tushunishi kerak. Masalan, grammatik tuzilmalar, arxaik so'zlar yoki eski frazeologik birliklar tarjimonda maxsus e'tibor talab qiladi.

Diaxronik tarjimada terminologik moslik va semantik tuzilish masalahari muhim hisoblanadi. Ba'zi so'zlar va atamalar o'z ma'nosini yo'qotgan yoki yangi ma'no yaratgan bo'lishi mumkin. Tarjimon bunday o'zgarishlarni hisobga olib, matnning asl ma'nosini to'liq ochib berishga harakat qiladi.

4. Sinxron va diaxronik tarjimadagi mas'uliyat va axloqiy masalalar

Tarjima – mamlakatlar va tillar o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi ko'prik bo'lib, u katta mas'uliyatni talab qiladigan sohalardan biridir. Tarjima jarayonida etik normalarga rioya qilish tarjimonning kasbiy javobgarligining eng muhim qismidir. Ayniqsa, sinxron va diaxronik tarjimalarda turli madaniyatlar, tarixiy davrlar va ma'lumot manbalari bilan ishlash tarjimondan yuqori darajada ehtiyotkorlik va professionallikni talab qiladi.



Date: 7th December-2025

Sinxron tarjimon rasmiy uchrashuvlar, konferensiyalar va muzokarlarda qatnashgani sababli, u eshitgan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi kerak. Pochhacker (2004) ta'kidlaganidek, tarjimon har doim neytral pozitsiyani saqlashi, shaxsiy fikrlarni aralashtirmasligi va nutq mazmunini o'zgartirmasligi kerak.

Diaxronik tarjimada esa tarixiy matnlar, arxiv hujjatlari va madaniy manbalar bilan ishlanadi. Ushbu turdagi tarjimonning etik mas'uliyati – matnning tarixiy haqiqatlarini va ma'lumotlarini buzmasdan, aniq tarjima qilishdir. Holmes (1988) aytib o'tganidek, tarjimon matn mazmuniga minimal darajada aralashishi kerak. Sinxron tarjima jarayonida bu – so'zlovchining fikrini o'z vaqtida, ortiqcha talqinlarsiz yetkazishni anglatadi. Diaxronik tarjimada esa – tarixiy kontekstni buzmasdan, matnning asl niyatini saqlashni taqozo etadi. Har ikki turdagi tarjimada tarjimonning professional mas'uliyati – matnning aniqligi, haqqoniyligi va manbaga sodiqligini ta'minlashdir. Tarjimon matnni siyosiy, diniy yoki madaniy manfaatlar uchun o'zgartirmasligi lozim, chunki tarjimaning haqiqiy mazmunga asoslanishi – tarjimonning eng katta etik mas'uliyatlaridan biridir.

Xulosa. Sinxron va yozma tarjima tarjimonlik faoliyatining ikki muhim yo'nalishi bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzalliklari va murakkab jihatlari bilan ajralib turadi. Sinxron tarjima real vaqt rejimida amalga oshirilgani sababli tezkor fikrlash, yuqori darajadagi diqqat jamlash va emotsional barqarorlikni talab qiladi. Uning asosiy afzalligi – muloqotning uzluksizligini ta'minlashi va xalqaro tadbirlar samaradorligini oshirishidir. Biroq, katta psixologik bosim, vaqtning cheklanganligi va xatolarga yo'l qo'ymaslik kabi qiyinchiliklar mavjud.

Yozma (diaxronik) tarjimada esa tarjimon matn bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, izlanish olib borishi, terminlarni aniqlashi va mazmunni chuqur tahlil qilishi mumkin. Bu jarayon aniq va sifatli natija berishi bilan qulay, ammo matnning hajmi katta bo'lsa, ko'p vaqt talab qilishi, murakkab tarixiy yoki madaniy mazmunlar ustida qo'shimcha fikrlashni talab etishi mumkin.

Umuman olganda, har ikki turdagi tarjima tarjimondan til bilimidan tashqari madaniy savodxonlik, psixologik tayyorgarlik va yuqori mas'uliyatni talab qiladi. Eng muvaffaqiyatli tarjimonlar – o'z kasbiy ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib, turli vaziyatlarda moslashuvchanlik ko'rsata oladigan va ikkala yo'nalishning ham metodikalaridan ongli ravishda foydalanadigan mutaxassislaridir.

Shunday qilib, sinxron va diaxronik (yozma) tarjima o'ziga xos talablari, afzalliklari va qiyinchiliklari bilan zamonaviy tarjimashunoslikning bir-birini to'ldiruvchi ikkita muhim yo'nalishidir. Ularning samarali amaliyoti uchun nafaqat a'lo darajadagi til bilimi, balki chuqur madaniy tushuncha, psixologik bardoshlik va yuqori darajadagi kasbiy axloq zarur. Kelajakdagi tarjimonlarni tayyorlashda ushbu ikkala yo'nalish bo'yicha muvozanatli va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim berish globallashtiruvchi dunyosida sifatli muloqotni ta'minlashning asosiy garovidir.

ADABIYOTLAR:

1. Bassnett, S. (2002). Translation studies (3rd ed.). Routledge.



Date: 7th December-2025

2. Gile, D. (2009). Basic concepts and models for interpreter and translator training. John Benjamins Publishing.
3. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
4. Pöchhacker, F. (2016). Introducing interpreting studies (2nd ed.). Routledge.
5. Seleskovitch, D. (1989). Interpreting for international conferences: Problems of language and communication. Pen & Booth.

